



## TIBBIYOT TARIXIDAN RIVOJLANISH BOSQICHLARI ASOSIY FAKTLAR

**Karimova Nargiza Erkinovna**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

**Ilmiy rahbar: Tursunova Gavhar Bekmurodova**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

### **Mavzuning dolzarbliji va ahamiyati.**

Asosiy qism barcha faktlar (ibtidoiy jamiyatdan XXI asrgacha), qisqa va ilmiy ifodada, umumiy natija, bugungi va kelajakda tibbiyotning ahamiyati.

Inson salomatligi barcha davrlarda eng asosiy masala bo‘lib kelgan. Tibbiyot ibtidoiy jamiyatdan boshlab, qadimgi sivilizatsiyalar, Islom rivojlanish davri, Yevropa uyg‘onish asrlari, XIX–XX asrdagi kashfiyotlar va XXI asr innovatsiyalari orqali taraqqiy etdi. Quyida tibbiyotning eng muhim FAKTLAR tarixiy bosqichlari bayon qilinadi.

#### **Ibtidoiy jamiyat tibbiyoti.**

1. Ilk tibbiyot duo, sehr va shamonlikka asoslangan. Kasalliklar «yovuz ruhlar» deb izohlangan. Shamonlar qo‘shiq va sehr bilan davolashga harakat qilgan.
2. O‘t-o‘lanlarni sinash orqali tabiiy dorilar topilgan. Trepanatsiya (suyakni teshish) ibtidoiy jarrohlik amaliyoti sifatida qo‘llanilgan.

#### **Qadimgi Sharq tibbiyoti**

3. Misr Ebers papiruslarida 700 dan ortiq giyohlar, moddalar, mumiyolash yozilgan. Ilk vrachlar – «Imxotep»lar sifatida ma’lum bo‘lgan.
4. Bobilda «Hammurapi qonunlari»da vrachlik qoidalari belgilangan.
5. Hindistonda «Ayurveda» tibbiy sistemasida 8 ta yo‘nalish, Shushruta atlasi yaratilgan.
6. Xitoyda igna bilan davolash (akupunktura), massaj, giyohvandlik vositalari paydo bo‘lgan.

#### **Qadimgi Yunon va Rim tibbiyoti**

7. Gippokrat (mil.avv. 460–370) – tibbiyot otasi. U tibbiyotni fan sifatida asoslangan. «Gippokrat qasamyodi» vrachlar odobining asosiga aylangan.
8. Aristotel anatomiya va biologiyani o‘rgangan.
9. Galen (129–201) – miya va asab tizimi haqida (qon aylanishi, farmakologiya, fiziologiya asoslari) nazariyalar yaratgan.
10. Rimda sanitariya va akveduklar sog‘liqni saqlashga xizmat qilgan.

#### **Islom davri tibbiyoti**

11. Ibn Sino (980–1037) – 5 jildli «Qonun fi-t-tibb» asarlari Yevropa va Sharqda 600 yil davomida qo‘llanilgan.
12. Ar-Roziy – «Al-Haviy», «Chechak va qizamiq»ni ilk bor farqlagan.
13. Beruniy va Farg‘oniy tabiiy fanlarni tibbiyot bilan uyg‘unlashtirgan.
14. Islom davrida dorixonalar (apteka) tashkil etilgan.
15. Markaziy Osiyoroda vrachlar ham nazariy, ham amaliy tibbiyot bilan shug‘ullangan.



- O‘rta asr va yangi davr tibbiyoti
16. Yevropada «qora o‘lat» pandemiyasi millionlab odamlarni halok qilgan.
  17. XVI asr – Andreas Vezaliy inson anatomiyasini ilmiy asosda o‘rgangan (anatomiya otasi).
  18. Uilyam Garvey (1578–1657) – qon aylanish tizimini ochdi.
  19. Jenner – birinchi vaksinani yaratgan.
  20. Paster – mikroblar nazariyasini asoslagan.
  21. Mechnikov – immunitet nazariyasini yaratgan.
  22. Robert Kox – sil mikrobi topgan.
  23. Anesteziya (efir, xlorofom) tibbiyotga kiritilgan.
  24. Lister – antisептика usulini joriy etgan.
  25. XIX asrda jarrohlik va akusherlik rivojlangan.
- XX asr tibbiyoti
26. Fleming – penitsillinni kashf etgan.
  27. 1895-yilda Vilgelm Rentgen – rentgen nurlarini kashf etgan va diagnostikada qo‘llangan.
  28. Qon guruhlari va qon quyish usuli aniqlangan.
  29. 1948-yilda Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) tuzilgan.
  30. Organ transplantatsiyasi yo‘lga qo‘yilgan.
  31. 1979-yilda chechak kasalligi butunlay yo‘q qilingan.
  32. Psixiatriya, onkologiya, kardiologiya mustaqil sohalarga ajralgan.
  33. O‘zbekistonda tibbiyot akademiyalari va ilmiy markazlar ochilgan.
- XXI asr tibbiyoti
34. Genom tadqiqotlari tibbiyotga kiritilgan.
  35. Robot-jarrohlik amaliyotlari qo‘llanilmoqda.
  36. Telemeditsina keng rivojlanmoqda.
  37. COVID-19 pandemiyasi tibbiyotning global ahamiyatini oshirdi, mRNA vaksinalari (Pfizer, Moderna) yaratildi.
  38. Sun’iy intellekt tibbiy tadqiqotlarda qo‘llanilmoqda, 3D-printer ishlatalmoqda.
  39. O‘zbekistonda zamonaviy tibbiyot markazlari (kardiologiya, transplantatsiya) faoliyat yuritmoqda.

**Xulosa.** Tibbiyot tarixi – insoniyat taraqqiyotining yorqin ko‘zgusidir. Ibtidoiy shamonlikdan tortib genom tadqiqotlarigacha bo‘lgan yo‘l inson hayoti va salomatligi uchun kurash yo‘lidir. Har bir davr kashfiyotlari keyingi bosqichlarga zamin yaratgan. XXI asr tibbiyoti esa inson umrini uzaytirish, kasalliklarni oldindan aniqlash va sog‘lom turmush tarzini ta’minlashga qaratilgan.





### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev X., "Tibbiyot tarixi", Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2015.
2. Ibn Sino, "Qonun fi-t-tibb" (arabcha matn va tarjimalar).
3. Porter R., The Greatest Benefit to Mankind: A Medical History of Humanity. W.W. Norton, 1997.
4. N.M. Amosov, "Razdumya o zdorove". Kiev, 1987.
5. Pormann P., Savage-Smith E. Medieval Islamic Medicine. Edinburgh University Press, 2007.
6. Magnier L. A History of Medicine. CRC Press, 2005.
7. Toshkent tibbiyot akademiyasi uchun darsliklar: "Tibbiyot tarixi va tibbiy etika", 2019.

